

Qamchiq dovonidagi zamonaviy sementbeton avtomobil yo'llari



Bugungi kunda avtomobil yo'llari qo'mitasi O'zbekistondan o'tuvchi xalqaro transport koridorlarida joylashgan avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish va rivojlantirish Hukumat dasturlarini amalga oshirish bo'yicha kompleks ishlar olib bormoqda.

Jumladan, 2019 yil 21 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi №-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining 116-190 km qismini rekonstruksiya qilish" loyihasi doirasida iqtisod qilingan mablag'lar evaziga ushbu yo'lining eksperimental tarzda qurilgan 173-176 km qismini rekonstruksiya qilish loyihasini amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Buning natijasida, №-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining baland tog'li dovon qismi xalqaro standart talablariga javob beradigan yagona texnik parametrlarga yetkazilib, rekonstruksiya qilish ishlari yakunlanadi.

Shu munosabat bilan, "Yo'l-loyiha byurosi" loyiha instituti tomonidan mavjud yo'l qismini 6 tasmadan iborat (har bir yo'nalishda 3 tadan tasma) sementbeton qoplamali avtomobil yo'liga o'tkazish, shu bilan birga qoplamaning yuk ko'tarish qobiliyatini 13 tonnaga yetkazish hamda qatnov qismining kunlik o'tkazuvchanlik qobiliyatini bir sutkada 40 ming avtotransport vositalaridan oshirishni hisobga olgan loyiha hujjatlari ishlab chiqildi.

Bugungi kunda, pudratchi "Evrason" kompaniyasi tomonidan qurilish maydonida keng ko'lamli rekonstruksiya qilish ishlari boshlab yuborilgan bo'lib, sementbeton qoplamaning yuqori sifatini ta'minlash maqsadida katta quvvatga ega yo'l qurilish texnikalari hamda Germaniya va Koreya Respublikalaridan xalqaro darajadagi malakali mutaxassislar jalb qilingan.

Loyihani amalga oshirish doirasida, "Evrason" kompaniyasi yuqori ish sifatini ta'minlash va resurslarni tejash imkoniyatini beradigan innovatsion texnologiyalar va mahalliy materiallarni qo'llash orqali eski eksperimental qoplamani buzib olib, o'rniga yangi zamonaviy sementbeton qoplamani qurishni rejalashtirgan.

Bajariladigan ishlar sifatini ta'minlash maqsadida qurilish ishlari ustidan texnik nazoratni Koreya Respublikasining "Sambo Engineering Co., Ltd." xalqaro konsalting kompaniyasi amalga oshirmoqda.

?-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining 173-176 km qismi foydalanishga topshirilgandan so'ng, ushbu yo'ning baland tog'li Qamchiq dovonidan o'tuvchi 100 km qismida intellektual transport tizimi (ITS) joriy etilishi rejalashtirilgan bo'lib, buning natijasida transport vositalari oqimi, ob-havo sharoiti va yo'l harakati xavfsizligini real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqarish imkoniyati yaratiladi.

?vtomobil yo'llari qo'mitasi

Matbuot xizmati